

FILOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY ADABIYOT NAMUNALARINING O'RNI VA UNDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi

*Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish
metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologiya yo'nalishi talabalarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda milliy adabiyot namunalaridan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari, amaliy yo'nalishlari va mavjud muammolari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida tanqidiy tafakkur tushunchasi, uning filologik ta'limdagi o'rne va milliy adabiyot asarlarining ushbu jarayondagi imkoniyatlari o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida filologiya yo'nalishi talabalarining tanqidiy tafakkurini shakllantirish jarayonidagi mavjud holatlar, muammolar va ularning yechimlariga qaratilgan tavsiyalar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalarida milliy adabiyot asarlarini tanqidiy tahlil qilish orqali talabalarning analitik fikrlash, argumentatsiya, baholash va mustaqil xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi isbotlangan. Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida milliy adabiyot namunalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion metodlar samaradorligi tasdiqlangan. Tadqiqot natijalari filologiya ta'limi sifatini oshirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy tafakkur, milliy adabiyot, filologiya ta'limi, analitik ko'nikmalar, badiiy matn tahlili, pedagogik texnologiyalar, kognitiv rivojlanish, metodologik yondashuv, ta'lim sifati, kompetentlik.

АНАЛИЗ РОЛИ ПРИМЕРОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В РАЗВИТИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ- ФИЛОЛОГОВ И ЕГО ПРОБЛЕМЫ

Эралиева Дильноза Ойбек кизи

*Наманганский областной педагогический центр
Преподаватель кафедры методики преподавания социальных и экономических
наук и языков*

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы, практические направления и существующие проблемы использования примеров национальной литературы в развитии критического мышления студентов-филологов. В исследовании изучается концепция критического мышления, его роль в филологическом образовании и потенциал национальных литературных произведений в этом процессе. В статье представлены актуальные ситуации, проблемы и рекомендации, направленные на их решение в процессе формирования критического мышления студентов-филологов в системе высшего образования.

Ўзбекистана. Результаты исследования доказывают, что студенты могут развивать навыки аналитического мышления, аргументации, оценки и самостоятельного заключения посредством критического анализа национальных литературных произведений. Кроме того, в результате педагогического пилотного тестирования подтверждена эффективность инновационных методов, основанных на использовании образцов национальной литературы. Результаты исследования служат для повышения качества филологического образования и современной системы подготовки кадров.

Ключевые слова: критическое мышление, национальная литература, филологическое образование, аналитические навыки, анализ литературных текстов, педагогические технологии, когнитивное развитие, методологический подход, качество образования, компетентность.

ANALYSIS OF THE ROLE OF NATIONAL LITERATURE EXAMPLES IN THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING OF PHILOLOGY STUDENTS AND ITS PROBLEMS

Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi

Namangan Regional Pedagogical Center

*Teacher of the Department of Methodology of Teaching Social and Economic
Sciences and Languages*

Annotation. This article analyzes the theoretical and methodological foundations, practical directions and existing problems of using national literature examples in the development of critical thinking of philology students. The research studies the concept of critical thinking, its role in philological education and the potential of national literary works in this process. The article puts forward current situations, problems and recommendations aimed at solving them in the process of forming critical thinking of philology students in the higher education system of Uzbekistan. The results of the study prove that students can develop analytical thinking, argumentation, evaluation and independent conclusion skills through critical analysis of national literary works. Also, as a result of pedagogical pilot-testing, the effectiveness of innovative methods based on the use of national literature samples has been confirmed. The results of the study serve to improve the quality of philological education and the modern personnel training system.

Keywords: critical thinking, national literature, philological education, analytical skills, literary text analysis, pedagogical technologies, cognitive development, methodological approach, quality of education, competence.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri - mustaqil, tanqidiy fikrlay oladigan, ijodiy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarni

tayyorlashdir. Bu jihatdan oliy ta'lim muassasalarida, xususan, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy tafakkur - bu shaxsning axborotni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Filologiya fanining o'ziga xos xususiyati shundaki, u til va adabiyotni o'rganish orqali insonning ma'naviy-intellektual rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Milliy adabiyot asarlari esa bu jarayonda muhim vosita vazifasini bajaradi, chunki ular millat tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, hayot falsafasini o'zida mujassamlashtirgan bebaho manbalardir. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Oripov kabi buyuk so'z san'atkorlarining asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan ham chuqur tahlilni talab etadi.

Bugungi kunda filologiya ta'limida milliy adabiyot namunalaridan tanqidiy tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, an'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha talabalarning passiv bilim olishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning mustaqil tahlil qilish, argumentlash, bahslashish ko'nikmalarini yetarli darajada shakllantirmaydi. Ikkinchidan, milliy adabiyot asarlarining tanqidiy tahlili ko'pincha yuzaki, shaklan amalga oshiriladi, asarning chuqur mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, zamonaviy kontekstdagi ahamiyati to'liq ochib berilmaydi. Uchinchidan, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar yetarli darajada qo'llanilmayapti.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tanqidiy tafakkur muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan. Amerikalik olimlar R. Ennis, D. Halpern, R. Paul va L. Elder tanqidiy tafakkurning nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim hissa qo'shganlar. R. Ennis tanqidiy tafakkurni "biror narsaga ishonish yoki qilish haqida qaror qabul qilishga yo'naltirilgan mantiqiy, reflektiv fikrlash" deb ta'riflagan. D. Halpern esa tanqidiy tafakkurni kognitiv strategiyalar va ko'nikmalar yig'indisi sifatida tavsiflab, uni rivojlantirishning maxsus metodlarini ishlab chiqqan. Bloom taksonomiyasi tanqidiy tafakkurni kognitiv rivojlanishning yuqori bosqichlari - tahlil, sintez va baholash

bilan bog'laydi.[2] Anderson va Krathwohl tomonidan qayta ko'rib chiqilgan taksonomiya esa tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini baholash va yaratishni bilish, tushunish, qo'llash va tahlil qilish bilan birga kognitiv jarayonlarning yuqori darajalari sifatida tasniflaydi. Bu nazariy asos filologiya ta'limida badiiy asarlarni tahlil qilish metodikasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. MDH mamlakatlarida tanqidiy tafakkur muammosi A.V. Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, M.V. Klarin, S.I. Zair-Bek kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. S.I. Zair-Bek va I.V. Mushtavinskaya tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning texnologiyasini ishlab chiqqanlar, bu texnologiya "chaqiruv - anglash - refleksiya" bosqichlarini o'z ichiga oladi va adabiyot darslarida samarali qo'llaniladi.[3]

O'zbekiston pedagogika fanida tanqidiy tafakkur masalasi N.A. Muslimov, M.X. Tog'ayeva, Sh.E. Qurbonov, J.A. Yo'ldoshev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. M.X. Tog'ayeva tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Sh.E. Qurbonov esa filologiya ta'limida interaktiv metodlar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirishning amaliy yo'llarini ishlab chiqqan. Milliy adabiyotni o'qitish metodikasi bo'yicha N. Qosimova, B. Qosimov, D. Quronov, Q. Yo'ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy-metodologik asos yaratgan. N. Qosimova milliy adabiyot asarlarini zamonaviy talqin qilish metodikasini ishlab chiqqan, B. Qosimov esa o'zbek mumtoz adabiyotini o'qitishda tarixiy-madaniy kontekstning ahamiyatini ko'rsatib bergan.[4] D. Quronov adabiyotshunoslik metodologiyasi va badiiy asar tahlili bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimlarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning ta'lim dasturlarida tanqidiy tahlil, argumentatsiya, refleksiya ko'nikmalari tizimli ravishda shakllantiriladi. AQSh va Buyuk Britaniyaning oliy ta'lim standartlarida adabiyot o'qitish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish alohida e'tiborga olingan.

Nazariy metodlar: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va sintez qilish, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, modellashtirish. Nazariy metodlar orqali tanqidiy tafakkur

tushunchasi, uning tarkibiy komponentlari, milliy adabiyot asarlarining tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdagi imkoniyatlari o'rganildi.[5]

Empirik metodlar: pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, intervyu, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov. Empirik metodlar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida filologiya yo'nalishi talabalarining tanqidiy tafakkur darajasini aniqlash, milliy adabiyot asarlaridan foydalanish holatini o'rganish maqsadida qo'llandi.[6]

Statistik metodlar: ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash, korrelyatsion tahlil, Student t-mezonidan foydalanish. Bu metodlar tajriba-sinov natijalarini ishonchliligini baholash uchun ishlatildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida filologiya yo'nalishi talabalarining tanqidiy tafakkur darajasini aniqlash maqsadida diagnostik baholash o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarining aksariyati (67,3%) tanqidiy tafakkurning o'rta va past darajasiga ega. Yuqori daraja faqat 12,2% talablarda qayd etildi. Badiiy asarlarni tahlil qilish ko'nikmalari bo'yicha quyidagi holatlar aniqlandi: talabalarining 58,4% faqat asarning syujetini qayta hikoya qilish bilan cheklanadi; 23,1% obrazlar tizimini yuzaki tahlil qila oladi; 11,8% asarning g'oyaviy mazmunini ochib bera oladi; 6,7% chuqur badiiy tahlil va tanqidiy baholash ko'nikmalariga ega. So'rovnoma natijalari milliy adabiyot asarlaridan tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda foydalanishdagi quyidagi muammolarni aniqladi:

An'anaviy o'qitish metodlarining ustunligi. Talabalarining 71,4% ta'kidlashicha, adabiyot darslari asosan ma'ruza shaklida o'tiladi, mustaqil tahlil va munozara uchun yetarli imkoniyat yaratilmaydi. Bu holat talabalarining passiv bilim oluvchi sifatida qolishiga olib keladi. Milliy adabiyot asarlari ko'pincha tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy kontekstdan ajratilgan holda o'qitiladi. Natijada talabalar asarning chuqur mazmunini, davr ruhini, muallifning dunyoqarashini to'liq anglash imkoniyatidan mahrum bo'ladi.[7]

Tanqidiy tahlil metodikasining ishlab chiqilmaganligi. O'qituvchilarning 63,2% maxsus tanqidiy tahlil metodikasidan foydalanmaydi. Bu holat badiiy asarni tahlil qilish jarayonini tizimsiz, izchillikdan mahrum qiladi. Tadqiqot natijalariga

ko'ra, talabalarning 44,5% milliy adabiyot asarlarini o'qishga kam qiziqish bildiradi. Buning asosiy sabablari - asarlarning qiyin tili, ularning zamonaviy hayot bilan bog'liqligining yetarli darajada ko'rsatilmasligi.

Tadqiqotning asosiy bosqichida tajriba guruhida milliy adabiyot asarlarini tanqidiy tahlil qilishga asoslangan maxsus metodika qo'llandi. Metodikaning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

Uch bosqichli o'qish strategiyasi. Bu strategiya "O'qishdan oldin - O'qish jarayonida - O'qishdan keyin" bosqichlarini o'z ichiga oladi. O'qishdan oldingi bosqichda talabalar asarning sarlavhasi, muallifi, yozilgan davri haqida taxminlar bildiradilar. O'qish jarayonida matn bilan faol ishlash, savollar qo'yish, belgilar qo'yish amalga oshiriladi. O'qishdan keyingi bosqichda esa tanqidiy tahlil, baholash, refleksiya o'tkaziladi.

"Bumerang" kooperativ o'qitish texnikasi. Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, har bir guruh asarning ma'lum bir jihati (obrazlar, kompozitsiya, til xususiyatlari, g'oyaviy mazmun) bo'yicha mutaxassis bo'ladi. Keyin "mutaxassislar" boshqa guruhlariga o'tib, o'z bilimlarini almashadi. Bu metod talabalarning hamkorlikda ishlash, bir-biridan o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Sokrat suhbatlari metodi. Bu metod ochiq savollar orqali talabalarni chuqur fikrlashga undaydi. O'qituvchi tayyor javoblar berish o'rniga talabalarni savol-javob orqali mustaqil xulosalarga olib keladi.

Badiiy asar tahlilining kognitiv xaritasi. Talabalar badiiy asarni tahlil qilishda maxsus kognitiv xaritadan foydalanadilar. Xarita asarning tematikasi, muammosi, obrazlar tizimi, kompozitsiyasi, til-uslub xususiyatlari, g'oyaviy mazmuni bo'yicha tahlil yo'nalishlarini belgilaydi.

Qiyosiy tahlil metodikasi. Talabalar milliy adabiyot asarlarini jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslab tahlil qiladilar. Masalan, A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani G. Floberning "Madam Bovari" yoki L. Tolstoyning "Anna Karenina" asarlari bilan qiyoslanadi. Bu yondashuv talabalarning keng qamrovli fikrlash, universal va milliy jihatlarni farqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Aniqlangan muammolar va ularning yechimlari. Tadqiqot jarayonida quyidagi muammolar va ularning yechimlari aniqlandi:

Birinchi muammo: O'quv dasturlarining tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yetarli yo'naltirilmaganligi. Yechim: Filologiya yo'nalishi o'quv dasturlariga "Tanqidiy tahlil asoslari", "Badiiy asar va tanqidiy fikrlash" kabi maxsus fanlarni kiritish; mavjud fanlar mazmuniga tanqidiy tahlil komponentlarini integratsiyalash.

Ikkinchi muammo: O'qituvchilarning tanqidiy tafakkurni rivojlantirish metodikasidan yetarli xabardor emasligi. Yechim: O'qituvchilar malakasini oshirish kurslarida tanqidiy tafakkur pedagogikasi bo'yicha maxsus modullar joriy etish; metodologik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish; ilg'or tajribalarni ommalashtirishga qaratilgan seminarlar tashkil qilish.

Uchinchi muammo: Ta'lim jarayonida interaktiv metodlarning kam qo'llanilishi. Yechim: "Bumerang", Sokrat suhbat, aqliy hujum, debat kabi interaktiv metodlarni keng joriy etish; talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan o'quv muhitini yaratish.

To'rtinchi muammo: Milliy adabiyot asarlarini zamonaviy kontekstda tahlil qilish metodikasining ishlab chiqilmaganligi. Yechim: Klassik asarlarni zamonaviy muammolar kontekstida tahlil qilish metodikasini ishlab chiqish; milliy va jahon adabiyoti namunalarini qiyosiy tahlil qilish amaliyotini joriy etish.

Beshinchi muammo: Baholash tizimining tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini hisobga olmasligi. Yechim: Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini baholash mezonlari va rubrikalarini ishlab chiqish; yakuniy nazoratda tanqidiy tahlil topshiriqlarini kiritish; portfolio baholash tizimini joriy etish.

XULOSA

Tanqidiy tafakkur zamonaviy mutaxassis uchun muhim kompetensiya hisoblanadi va filologiya yo'nalishi talabalarida bu ko'nikmani rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Milliy adabiyot asarlari tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi, chunki ular chuqur falsafiy mazmun, ijtimoiy-tanqidiy yo'nalish, psixologik tahlil va milliy identitet masalalari bilan sug'orilgan. Hozirgi kunda filologiya ta'limida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud: an'anaviy o'qitish metodlarining ustunligi, badiiy asarlarni kontekstsiz o'qitish, tanqidiy tahlil metodikasining ishlab chiqilmaganligi, talabalar motivatsiyasining pastligi. Bu muammolarni hal qilish uchun tizimli yondashuv

talab etiladi. Tajriba-sinov natijalari milliy adabiyot asarlarini tanqidiy tahlil qilishga asoslangan metodikaning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Uch bosqichli o'qish strategiyasi, "Bumerang" kooperativ texnikasi, Sokrat suhbat, kognitiv xaritalar va qiyosiy tahlil metodlari talabalarning tahlil qilish, baholash, argumentatsiya, refleksiya va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: birinchidan, filologiya yo'nalishi o'quv dasturlariga tanqidiy tahlil komponentlarini integratsiyalash; ikkinchidan, o'qituvchilar malakasini tanqidiy tafakkur pedagogikasi bo'yicha oshirish; uchinchidan, interaktiv o'qitish metodlarini keng joriy etish; to'rtinchidan, milliy adabiyot asarlarini zamonaviy kontekstda tahlil qilish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; beshinchidan, tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini baholaydigan mezonlar va rubrikalarni joriy qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.
2. Bloom, B.S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. New York: David McKay Company.
3. Ennis, R.H. (1985). A logical basis for measuring critical thinking skills. *Educational Leadership*, 43(2), 44-48.
4. Halpern, D.F. (1998). Teaching critical thinking for transfer across domains. *American Psychologist*, 53(4), 449-455.
5. Muslimov, N.A., Qo'ysinov, O.A., & Qodirov, K.B. (2021). Pedagogik faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Tog'ayeva, M.X. (2019). Oliy ta'limda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Pedagogik mahorat*, 4(3), 112-118.
7. Qurbonov, Sh.E. (2020). Filologiya ta'limida interaktiv metodlar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish. *Til va adabiyot ta'limi*, 2(1), 45-52.